

BODRINGNI VEGITATIV YO‘L BILAN PAYVANDLASH TEXNOLOGIYASINING AFZALLIKLARI

Nurillayev Ilhom Xolbek o‘g‘li

Qarshi davlat universiteti o‘qituvchisi

mr.ilhommurillayev@gmail.com

ANNOTATSIYA

Hozirgi kunga kelib yer yuzida 8 mld atrofida insonlar istiqomat qilmoqda. Yer yuzida insonlar sonining ortib borishi insonlarning yashash uchun joyga, ijtimoiy, maishiy talablari bilan bir qatorda ularning oziq ovqatga va toza ichimlik suviga bo‘lgan talabni orttiradi. Shuni inobatga olib butun dunyo olimlari insonlarning oziq ovqatga bo‘lgan extiyojini qondirish uchun yangicha qishloq xo‘jalik maxsulotlarini yaratish, yangilarini intoduksiya qilish bilan bir qatorda, mavjud o‘simliklarni yangicha o‘stirish texnologiyasi orqali yetishtirish ishlari olib borilmoqda. Bu yo‘nalishdagi ishlarning bir yo‘nalishi hisobida bodringni kuchli payvantaglariga payvantlash texnologiyasi hisoblanadi. Bodringni qovoq yoki qovoqchaga payvandlashdan asosiy maqsad uning yashovchanligini oshirish bilan bir qatorda ildiz sistemasini kuchaytirish. Bundan tashqari qovoqda bir qancha kasalliklarga chidamlilik xam yaxshi rivojlangan. Ushbu maqolada bodringni payvantlash texnologiyasi bo‘yicha qilingan bir qancha ishlar yoritilgan.

KALIT SO‘ZLAR. *Payvantlash, payvandag, payvandust, muddat, muhit, moslashish.*

KIRISH.

Bodringni qovoqqa payvandlash o‘ziga xos usul bo‘lib, bodringni xayotchan bir qismini boshqa qovoqning to‘qimasiga joylashtirish va natijada ular to‘qimalarning regeneratsiya yo‘li bilan birikishi va bir o‘simlik kabi o‘sinh va rivojlanishda davom

ettirishidir. Sabzavot ekinlarini payvandlash ko'chatlik bosqichida o'sib turgan o'simlikning qalamchasini (payvandust) boshqa ildizli o'simlik (payvandtag)ga ulash natijasidir. Payvandtag sifatida qovoqni tanlashning maqsadi, qovoq kuchli ildiz tizimini shakllantiradi va tuproqdan ko'p namlik va oziq moddalarni o'zlashtirishdan iborat, bundan tashqari qovoq ildizi xaroratga kam talabchan, sho'rlanish va tuproqdagi kasalliklar (fuzarioz, nematoda, ildiz chirish va boshqa) ga chidamli hisoblanadi. Bu xususiyatlarni hisobga olib yani issiqqa, sovuqqa va boshqa stresslarga chidamligi bilan bir qatorda kasalliklarga ham bardoshli hisoblanganligi sababli bodringga payvandtag sifatida qovoq o'simligini tanladik. Payvandtag sifatida olgan qovoq o'simligimiz o'zining ildiz tizimi orqali payvandustni yani bodringni ozuqa elementlar bilan ta'minlaydi, payvandust bodring esa o'z navbatida fotosintez jarayonida bargda sintez qilgan organik moddalar bilan yangi xosil bo'lgan o'simlikni to'yintiradi, shunday qilib payvandtag va payvandust o'zaro bir-biriga ta'sirini o'tkazadi. Natijada vujudga kelgan yangi komponentli o'simligimiz normal xolatda o'sib rivojlanadi. Pirovardida esa biz kutgan yuqori xosil beruvchi, kasallik va zararkunandalarga chidamli o'simlik vujudga keladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Bodring uchun payvandust sifatida geterozis duragaylar (partenokarpik va asalari yordamida changlanuvchi)ni olingani maqul. Bodring uchun payvandtag sifatida fuzarioz so'lishga chidamli qovoq (*Sucurbita ficifolia*) ni ishlatish mumkin[2]. Payvandtag sifatida lagenariya qovog'i yoki idish qovoq (*Lagenaria siceraria*) dan foydalaniladi, ularga payvandlangan tarvuz, qovun yoki bodringni xosildorligi, tezpisharligi va sovuqqa chidamliligini oshiradi. Payvandlangan tarvuz, o'z ildizida o'sib rivojlangan tarvuzga taqqoslanganda, mevasi katta va shirinligi yuqori bo'lganligi aniqlangan[2,3]. Payvandlash texnologiyasi xar bir o'simlik (ko'chat) ni poyasini aloxida kesishni taqazo etadi, ish jarayonini tashkil etishda urug'larni issiqxonaga ekish sharoiti, ko'chat olish uchun kasseta yoki tuvakchalar bo'lishi kerak. Bu jarayon ko'chatlarni payvandlash uchun gurux-gurux qilib olib o'tishda qo'l keladi va payvandtag ildiz tizimiga zarar yetkazmaslik xamda ko'chatlarni payvandlangandan

keyin oldindan tayyorlab qo'yilgan maxsus himoyalangan joylarga o'simliklarni shu sharoitga o'rgatish uchun joylashtiriladi[3,4]. Issiqxonada ko'chatlarni payvandlash uchun tayyorlash jarayonida va payvandlangandan keyin xaroratni $+25+28^{\circ}\text{C}$ da ushlab turish zarur. Ko'chatlarni o'stirish davrida yorug'lik, xarorat va namlikni sozlash, payvandlaguncha xar bir payvandtag nixolning yerdan to birinchi bo'g'imigacha (urug' bargigacha) oralig'i uzun bo'lishi kerak. Shunda payvandlangan joy tuproqdan yuqorida joylashadi, bunda tuproq bilan bog'liqligi bo'lmaydi va o'simlikni tuproq kasalliklariga va o'simlikni tuproq kasalliklariga chidamli bo'lishini ta'minlaydi[3,5]

NATIJALAR.

Qovoq va bodringni payvandlash jarayonini o'tkaziladigan tajriba joyi oldindan tayyorlangan bo'lishi zarur. Payvandlash bevosita maxsus peshtaxta yoki stolda olib boriladi. Ishning qulayligini ta'minlash uchun stul yoki o'rindiqdan foydalanishga ahamiyat berish zarur. Payvantlash jarayoni uchun zarur uskunalar-rezina qo'lqop, payvandlash uchun maxsus tig'li keskich, maxkamlovchi material rezina trubka yoki klipsi-qisqich kerak, shtangensirkul, chizg'ich, variantlarni yozish uchun (yorliq) etiketika yoki kichik-qoziqchalar, qalam, ruchka, yozuv uchun maxsus daftar yoki jurnal kerak bo'ladi. Bundan tashqari xonaning va ishni bajaruvchi shaxsni dizinfeksiya qilinganligiga e'tibor berish lozim. Xonaning xarorati ham katta ahamiyat beradi bunda, harorat haddan ziyod sovuq yoki issiq bolmasligi lozim. Bunda xona xaroratini $18-23^{\circ}\text{C}$ bo'lishi maqbul. Avvaldan tayyorlab qo'yilgan qovoq va bodringlar payvandlash xonasiga olib kiriladi. Bunda o'simliklarni yetishtirish muddatlariga qarab urug'lar yani payvantag qovoq va payvandust bodring ekish muddatidan 7-8 kun avval ekiladi. Bunga asosiy sabab payvandlashdan so'ng bu muddat o'simlik organizimini shu muxitga moslashishi uchun ketadi. Bundan tashqari o'simlikni ekin turiga qarab payvandlashdan oldin 2-4 soat to'yintiib sug'orish muxim jarayon hisoblanadi, chunki payvantlashdan keyin ularni payvandlangan joyi bitguncha sug'orilmay turiladi. Payvantlash uchun diametri bir xil bo'lgan qovoq va bodring ko'chati tanlab olinadi. Nixollarni kesish jarayonida barglarga etibor berish muxim.

O‘simliklarni kesilgan xolda uzoq vaqt qoldira olmaymiz sababi uzoq vaqt qolib ketgan o‘simlik suv yoqotishi hisobiga payvantlash jarayonining sifatsiz chiqishiga olib keladi. Payvantlash jarayonida har bir kesishdan so‘ng ish asboblari spitr yoki distillangan suv bilan tozalanadi. Sabzavot ekinlarini payvatlashning bir qancha usullari mavjut bo‘lib biz payvandlash uchun ananaviy yorma yani iskana payvantlash usulidan foydalandik. Payvantlash jarayonida etiborni payvandtag bilan payvanduskni po‘stloq qismini bir biriga mosligiga etibor berish kerak.

MUHOKAMA.

Demak payvandlash jarayonining mukammal chiqishi barcha jarayonlarni nazorat ostida olib borilish juda muhim. Ammo bodringni qovoqqa payvand qilish jarayonining murakkabligi mavjud bo‘lib bu qovoq urug‘g‘dan chiqishi bilan poya diametri yog‘onlashadi. Payvandlash uchun esa payvandtag va payvandustning diametri bir xil bo‘lishi kerak. Shu sababli bodring urug‘dan chiqib dastlabgi chin barg chiqarganidan so‘ng qovoqni tuproqqa qadaymiz. Bu bilan biz payvandlash jarayonidagi diametрни tenglashtirib olish. Payvandlash jarayoni nixoyasiga yetgach darxol yorliqqa qachon payvantlash jarayoni amalga oshirilgani, qaysi o‘simliklar payvadlanganligini ifodalovchi yorliq joylashtiriladi va maxsus xonalarga olib kiriladi. Bu xona akklimatazatsiya xonasi bo‘lib bu xonada xarorat kechasi 20-22⁰C Kunduz kuni esa 25-28⁰C bo‘lishi, namligi esa 96-98% bo‘lishi lozim.

XULOSA.

Demak biz bir qancha tajribalar va yangi texnologiyalar asosida qishloq xo‘jalik maxsulotlarini yetishtirishni yangicha texnologiyalari asosida mahsulot yetishtirib kelgusida yuzaga keladigan oziq ovqat muammosini bir qancha hal etishimiz kerak. Shu boisdan biz boshqa sabzavot ekinlari qatorida bodringni xam kuchli payvandtagga o‘tqazib yetishtirish texnologiyasini ko‘rib chiqdik. Bu jarayon bir qancha afzalliklarga ega bo‘lishi bilan birga bazi kamchiliklari ham mavjud. Bular-payvandlangan bodring ko‘chatlarini tayyor bo‘lish muddatini oddiy ko‘chatlarga nisbatan 7-8 kunga kechikishi, payvandlashdagi sarf xarajanlarning nisbatan yuqoriroq bo‘lishi. Ammo bularga qaramasdan agarda yaxshi agrotexnik tadbirlarni amalga oshirganimizda biz eng yuqori rentabillikga erishishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Boysunov., N., Nurillayev., I. (2023). “orolbo‘yi hududining murakkab stress omillariga (sho‘rga, qurg‘oqchilikka, kasallikga) bardoshli, bahorgi bug‘doyning serhosil, donning sifat ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan navlarni tanlash va resurstejamkor agrotexnologiyasini ishlab chiqish”. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(3), 860–863. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/2478>
2. Mavlyanova R.F., Yunusov S.A, Karimov B.A Sabzavot ekinlarini vegetativ payvandlash. Toshkent-2018
3. Plant Sci., 07 January 2021 Sec. Crop and Product Physiology Volume 11 - 2020 | <https://doi.org/10.3389/fpls.2020.621999>
4. Прививка овощей. Способы прививки овощей. Вэб-сайт: Урожайная грядка. http://urozhaynagryadka.narod.ru/privivka_ovoshey.htm
5. https://www.vigyanvarta.com/adminpanel/upload_doc/VV_1220_17a.pdf